

**TARIXIY-MADANIY MEROS OBYEKTLARIDAN SAMARALI
FOYDALANISH ISTIQBOLLARI
(QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)**

Qilichev Zaynobiddin Mirzayevich

Qarshi davlat texnika universiteti assistenti

Muzropova Fazilat Ibrohim qizi

Qarshi davlat texnika universiteti assistenti

Fayzullayeva Lobar Xayrulla qizi

Qarshi davlat texnika universiteti assistenti

Annontatsiya. Ushbu maqolada moddiy-madaniy meros obyektlari, ularning bugungi kundagi holati, ushbu obyektlarni muhofaza qilish chora-tadbirlari haqida bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: tarixiy obyektlar, arxeologiya, arxitektura, muhofaza belgisi, sanitariya, raqamlı konservatsiya.

**ПЕРСПЕКТИВЫ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ
ОБЪЕКТОВ ИСТОРИКО-КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ
(НА ПРИМЕРЕ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ)**

Киличев Зайнобиддин Мирзаевич

Доцент Каршинского государственного технического университета

Музропова Фазилат Ибрагим кызы

Доцент Каршинского государственного технического университета

Файзуллаева Лобар Хайрулла кызы

Доцент Каршинского государственного технического университета

Абстрактный. В статье описываются объекты материального и культурного наследия, их современное состояние, а также меры по охране этих объектов.

Ключевые слова: исторические места, археология, архитектура, знак сохранения, санитария, цифровая консервация.

PROSPECTS OF EFFECTIVE USE OF HISTORICAL AND CULTURAL HERITAGE OBJECTS

(IN THE EXAMPLE OF KASHKADARYA REGION)

Kilichev Zaynobiddin Mirzayevich

Assistant Professor, Karshi State Technical University

Muzropova Fazilat Ibrohim kizi

Assistant Professor, Karshi State Technical University

Fayzullayeva Lobar Khairulla kizi

Assistant Professor, Karshi State Technical University

Abstract: This article describes the objects of material and cultural heritage, their current state, and measures to protect these objects.

Keywords: historical objects, archeology, architecture, protection sign, sanitation, digital conservation.

KIRISH. Insoniyat tarixidagi eng katta boyliklardan biri – bu o‘zining madaniy va tarixiy merosi, ya’ni ajdodlardan qolgan obyektlar, san’at asarlari va arxitekturaviy yodgorliklardir. Bu meros o‘tmishni, qadriyatlarni, umuman madaniy o‘zlikni anglashda muhim ahamiyatga ega. Tarixiy madaniy meros obyektlari nafaqat bir millatning yodgorliklari, balki global ahamiyatga ega boyliklardir. Ular orqali har bir inson o‘z tarixini, urf-odatlarini, hatto dunyo miqyosidagi madaniyatni yaxshiroq tushunish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bugungi kunda bu merosni asrab-avaylash va saqlash masalalari juda dolzarb bo‘lib, nafaqat ilm-fan, balki iqtisodiyot va turizm sohalarida ham o‘zining muhim rolini o‘ynamoqda.


ADABIYOTLAR TAHLILI. Tarixiy-madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanish borasida bir necha olimlar izlanishlar olib borishgan. M.Qobulov madaniy-tarixiy meros obyektlari holatini yaxshilash va ularni kelajak avlodlar uchun saqlash zamonaviy texnologiyalarning, shu jumladan, raqamli konservatsiya va 3D skanerlashning o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlagan. Bu usullarda tarixiy-madaniy obyektlarning holatini va jismoniy eskirishini muntazam aniqlab borish mumkinligi haqida aytib o'tgan. Sh.Ibragimov tarixiy-madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanish uchun ularda turizmni keng rivojlantirish eng qulay usul deya ta'kidlagan. Sh.Ibragimov tarixiy obyektlar va turizm o'rtasidagi muhim bog'liqlikni o'rganadi. U tarixiy-madaniy ob'ektlarni turistik manzillarga aylantirishning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatini ta'kidlaydi. Bunday yondashuv, uning fikriga ko'ra, meros ob'ektlarini saqlashga yordam beradi va shu bilan birga, iqtisodiy foyda keltiradi, xususan, turizm sohasida yangi ish o'rnlari yaratish va mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirishga yordam beradi.

METODOLOGIYA. Bugungi kunda mamlakatimiz o'zining tarixiy qadamjolari bilan YUNESKO da dunyoning madaniy merosga egalik qiluvchi mamlakatlar orasida 9-o'rinda turadi. Bular ichidan dunyo e'tiborini tortgan Xiva shahridagi "Ichon-qal'a", "Samarqand-madaniyatlar chorraxasi" obyekti, Buxoro va Shahrisabz tarixiy manzilgohlari Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan obyektlarning yaqqol namunasidir. Bu obyektlardan samarali foydalanish iqtisodiy va ijtimoiy tomondan mamalakat rivoji uchun ijobiy xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonining 35-maqсадида Turizm va madaniy meros obyektlari infratuzilmasini rivojlantirish hamda mavjud madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanish bo'yicha davlat dasturini qabul qilish masalalari belgilangan. [1]

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Tadqiqot obyekti bo'lgan Qashqadaryo viloyatidagi tarixiy obyektlar hamda arxeologiya yodgorliklaridan samarali foydalanish bo'yicha ham normativ asoslar qabul qilingan. Unga ko'ra, O'zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yildagi “Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini yanada qo’llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 112-sonli qaroriga ko‘ra moddiy madaniy meros obyektlarini konservatsiya va restavratsiya qilish masalalari belgilab qo‘yilgan[2].

Mamlakatimizning har bir hududida joylashgan moddiy-madaniy obyektlardan samarali foydalanish hudud iqtisodiyoti uchun muhim omil hisoblanadi. Hozirgi vaqtda respublikamizda 8208 ta moddiy-madaniy meros obyektlari mavjud bo‘lib, shundan 4748 tasi arxeologiya yodgorliklari, 2250 tasi arxitektura yodgorliklari, 678 tasi monumental san’at yodgorliklari, 532 tasi diqqatga sazovor joylardir. Qashqadaryo viloyatida jami moddiy-madaniy obyektlari 1468 ta bo‘lib, tumanlar kesimida quyidagicha joylashgan (1-chizma):



1-chizma. Qashqadaryo viloyatida joylashgan tarixiy-madaniy obyektlar soni (hududlar kesimida)

Respublikamiz hududidagi mavjud moddiy-madaniy meros obyektlari holatiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, har bir ma’muriy birlik o‘zining yetarlicha arxeologiya va arxitektura obyektlariga ega. Lekin ularning bazilarining achinarli holatda ekanligining guvohi bo‘lamiz. 8 mingdan ortiq bo‘lgan ushbu obyektlarning 259 tasi butkul yo‘qotilgani, jami obyektlarning atigi 34% ining kadastr hujjati mavjudligi, bor yo‘g‘i 29,5% qismiga muhofaza belgilari o‘rnatilganligini aytishimiz mumkin.

Qashqadaryo viloyatida esa 18 ta moddiy-madaniy meros obyektlari hududida noqonuniy qurilmalar qurilgan, 382 tasi (26%) da muhofaza belgilari mavjud emas. Bunga misol tariqasida XVII-XIV asrlarga oid Yakkabog‘ tumanidagi Yodgor Vallamin madrasasini ko‘rsatishimiz mumkin. Viloyatdagi 35 ta tarixiy obyekt ta’mir talab holatda, 10 ta obyektdan noqonuniy foydalanib kelinmoqda. 5 ta madaniy meros obyektlariga esa reklama bannerlari osilganligini, turistlar tashrif buyuradigan madaniy meros obyektlarining 58 tasida yong‘in xavfsizligi va 49 tasida sanitariya qoidalari buzilganligini aytishimiz mumkin. Bu sanab o‘tilgan noxush holatlarning bartaraf etilishi iqtisodiy rivojlanish, aholi madaniyatini yuksaltirish hamda ijtimoiy hayotni barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Keyingi paytlarda moddiy-madaniy meros obyektlarining holatini o‘rganish, bu noyob obyektlarni muhofaza qilish, har qaysi obyektlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan samarali foydalanish eng muhim dolzarb masalalardan biridir. Qashqadaryo viloyatidagi tarixiy obyektlarning holatini yaxshilash viloyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Ushbu obyektlarning saqlanganlik darajasi, ular bo‘yicha amalga oshiriladigan tahlillarning qanchalik muvaffaqiyatli bo‘lishi mazkur obyektlar faoliyati uchun ijobjiy xizmat qiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni. PF-60-son. T., 2022-yil 28-yanvar. Manba: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini yanada qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 112-sonli qarori. T., 2021-yil 1-mart. Manba: <https://lex.uz/docs/-5316745>
3. Сафаров И. Б., Халилов Н. Х. Экономико-географические проблемы градостроительства верхнекашкадаръинской области //Educational research in universal sciences. – 2024. – т. 3. – №. 2. – с. 707-713.

4. Fayzullayeva Lobar Xayrulla qizi. Moddiy madaniy meros obyektlari holatini yaxshilashda xatloving o‘rni (Qashqadaryo viloyati misolida) Educational research in universal sciences – 2024.05. 47-50 b.

5. Fayzullayeva Lobar Xayrulla qizi. Turizm va rekreatsion hududlardan samarali foydalanish istiqbollari (Qashqadaryo viloyati misolida) . “Zamonaviy geografiyada innovatsion g‘oyalar: raqamli iqtisodiyot va gis texnologiyalar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari 2024-yil 25-26-oktabr. qarshi. 189-192 b.